
Muammo, murojaat va yechim – qabullar murojaatlarning manzilli hal etilishiga xizmat qiladi

Yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot inson qadri uchun xizmat qilmog'i lozim va bu tamoyil bugungi kunda oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bugun barcha davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlash bo'yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim yaratildi.

Joylarda o'tayotgan qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda, shakshubhasiz, kutilgan natijalarni bermoqda.

Rishton tumanida ham tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan belgilangan rejaga asosan qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Bugun xalq qabulxonasida sektor rahbarlarining navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Qabulda tuman hokimi, sektor rahbarlari, Xalq qabulxonasi mutaxassislari, tuman hokimining o'rinbosarlari va mahallalardagi yordamchilari, tumandagi korxon va tashkilotlar rahbarlari hamda mahallalardan kelgan 50 ga yaqin fuqarolari ishtirok etishdi.

Qabulda fuqarolarning murojaatlari mas'ullar ishtirokida tinglanib, shu joyning o'zida ko'rib chiqildi. Qabul davomida fuqarolarning uy-joy rasmiylashtiruv, elektr energiyasi ta'minoti, ichimlik suvi, yo'l va boshqa masalalardagi 35 ta murojaati qabul qilindi.

Murojaatlarning 12 tasi shu joyning o'zida ijobiy hal etib berildi. Kelib tushgan murojaatlarning 18 tasiga tuman hokimi va mas'ullar tomonidan tushuntirish berilib, ko'tarilgan masalalar kelgusida amalga oshiriladigan dasturlar doirasida hal etilishi bildirildi. Ijrosi muddat va mas'ullar tomonidan qo'shimcha o'rganish talab qiladigan 5 ta murojaatga muddatlar belgilanib, mas'ullarga ijro uchun yo'naltirildi hamda ijrosi sektorlar shtabi tomonidan nazoratga olindi.

Albatta bu kabi sayyor qabullarda aholi murojaatlarini joyida o'rganish va hal etish orqali mavjud muammolarning bartaraf etilishi, aholining roziligini ta'minlaydi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-11 14:57:39